XALQ DEPUTATLARI SO‘X TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

Сўх тумани А.Темур -95 +998 73 462 5054

2025-yil 26-fevral VII-5-27-11-159-K/25 So‘x tumani

So‘x tumanida Aholi bandligini ta’minlash va Kambag‘allikni qisqartirish dasturi bo‘yicha maqsadli kursatkichlarni tasdiqlash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi 2025-yilda aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori asosida Hududlarda aholi bandligini ta’minlash, ularni tadbirkorlikka jalb qilish va daromadlarini oshirish bo‘yicha yangi yondashuvlarni keng joriy qilish, mahallalarda ehtiyojmand aholi qatlami bilan manzilli ishlashni tashkil etish va ijtimoiy xizmatlar ko‘lamini kengaytirish, mavjud resurslar, imtiyozlar va preferensiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish va kambag‘allikni qisqartirish maqsadida So‘x tumanida 2025-yil uchun (yanvar-dekabr oylari) 13009 ta prognoz reja, shundan doimiy ish o‘rinlari soni 8057 ta, mavsumiy ish o‘rinlari soni 516 ta hamda vaqtinchalik ish o‘rinlari hisobiga 4436 ta yangi ish o‘rinlari yaratilishi belgilangan.

Jumladan, tarmoqlar kesimida:

Investisiya loyhalarini amalga oshirish hisobiga 1469 ta, hududiy investisiya loyihalari 1469 ta.

Tijorat banklari yo‘nalishida 5800 ta, Aholini doimiy ishga joylashtirish hisobiga 2400 ta, shundan, Aholini tadbirkorlikka jalb qilish hisobiga 3400 ta.

Qishloq va suv xo‘jaligi sohasida 4947 ta shundan 511 ta doimiy, 4436 ta mavsumiy.

Qurilish yo‘nalishida 793 ta, 277 ta doimiy, 516 ta vaqtinchalik yangi ish o‘rinlari yaratilishi belgilangan.

Shuningdek So‘x tumanida 2025-yilda kutilayotgan jami ishsizlar soni 5828 ta tashkil etadi. 2025-yilda maktabni bitiradigan o‘quvchilar soni 1250 nafar, Xorijdan qaytishi kutilayotgan fuqarolar soni 2300 nafar, Oliy ta’lim bitiruvchilari soni 200 nafar,jami ishsiz fuqarolar 2050 nafar, harbiy xizmatdan qaytadiganlar 19 nafar, Jazoni o‘tash joylaridan qaytadiganlar 9 nafarni tashkil etadi.

Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari I.Tojiboev hamda tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i G‘.Melnikovlarning “Tumanda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi to‘g‘risida”gi hisobotlarini muhokama qilib, “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida” gi O‘zbekiston

Respublikasi Qonunining 6 va 24- moddalariga muvofiq Xalq deputatlari tuman Kengashi;

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari I.Tojiboev hamda tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i G‘.Melnikovlarni “Tumanda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi to‘g‘risida”gi hisobotlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. So‘x tumanida 2025-yil uchun aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish prognoz ko‘rsatkichlarining oyma-oy taqsimoti yig‘masi 1-ilovaga muvofiq;

3. So‘x tumanida 2025-yilda investitsiyalar, tashqi savdo va mahalliy sanoatni rivojlantirish yo‘nalishida yaratiladigan yangi ish o‘rinlarining oyma-oy taqsimoti yig‘masi 2-ilovaga muvofiq;

4. So‘x tumanida 2025-yilda Markaziy bank tomonidan tadbirkorlik va kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishida aholini doimiy va vaqtinchalik ishlarda band qilish prognoz ko‘rsatkichlarining oyma-oy taqsimoti yig‘masi 3-ilovaga muvofiq;

5.Qishloq, suv va o‘rmon xo‘jaligida doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish prognoz ko‘rsatkichlarining oyma-oy 4-ilovaga muvofiq;

6. Qurilish, transport va kommunal sohalarida aholini doimiy ishlarda band qilish va korxonalarda norasmiy ishlayotgan xodimlarni vaqtinchalik prognoz ko‘rsatkichlarining oyma-oy taqsimoti yig‘masi 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. Kuyidagilar dastur ijrosini ta’minlashga shaxsan mas’ul etib belgilansin;

-Investitsiya tashqi savdo masalalari bo‘yicha hokim o‘rinbosari A.Safarov yirik va hududiy investitsiya loyihalari bo‘yicha,

-Tadbikorlik va kambagallikni qisqartish yunalishida Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari I.Tojiboev va AT Xalq bank rahbari N.Sodirbekov, Agro bank rahbari P.Xudoyberganov, Mikro kredit bank rahbari B.Enazarovlar ma’sul deb hisoblansin.

-Qishloq va suv xujaligi buyicha hokim o‘rinbosari M. Mavlonbekov - qishloq xujaligi yunalishi bo‘yicha;

-Tuman hokimining sanoatni rivojlantirish kapital qurilish kamunikatsiyalar va kamunal xujaligi bo‘yicha o‘rinbosri S. Murzoev-qurilish yunalishi bo‘yicha;

-So‘x tumanida 2025-yilda Qurilish, transport va kommunal sohalarida aholini doimiy ishlarda band qilish va korxonalarda norasmiy ishlayotgan xodimlarni vaqtinchalik prognoz ko‘rsatkichlarining oyma-oy taqsimoti yig‘masi 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. So‘x tumani hokimining birinchi o‘rinbosari (I.Tojiboev) hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i (G‘.Melnikov)ga;

- Dasturda belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va samarali amalga oshirish;

- Mavjud ish o‘rinlari bo‘yicha aholi bandligini ta’minlashga qaratilgan tadbirlar, shu jumladan bo‘sh ish o‘rinlari bo‘yicha mehnat yarmarkalarini tashkil etish, kasbhunarga o‘qitish, mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan fuqarolarni reintegratsiya qilish va alohida toifadagi ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish, bu borada mavjud imkoniyatlardan keng va samarali foydalanish choralarini ko‘rib borish;

- Kasbga tayyorlash kurslarini samarali va tizimli tashkil etish, bunda aholini ko‘proq jalb qilish hamda mashg‘ulotlarni o‘z vaqtida va samarali o‘tishini doimiy nazorat qilib borish;

- Mehnat qonunchiligi va mehnat muhofazasi yuzasidan o‘tkazilgan nazorat tadbirlarida aniqlangan qonunbuzilish holatlari sabablarini tahlil qilish va kelgusida uni oldini olish bo‘yicha ta’sirchan chora-tadbir ishlab chiqish;

- Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har oy yakuni bo‘yicha Xalq deputatlari tuman Kengashiga axborot kiritish vazifalar yuklatilsin.

9. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Juraev)ga

- Tasdiqlangan Dastur bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ijtimoiy tarmoqlarda hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytlarida keng yoritib borish vazifasi yuklatilsin.

10. Mazkur qarorni nazorat xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

11. Qaror qabul qilinga kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi  SAYIDMUSAYEV SAYIDBAXROM SAYIDBURXONOVICH

Xalq deputatlari So‘x tumani Kengashining
2025-yil 26-fevraldagi
VII-5-27-11-159-K/25 -son qaroriga
1-ilova

So‘x tumanida 2025-yil uchun aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish prognoz ko‘rsatkichlarining oyma-oy TAQSIMOTI YIG‘MASI

№	Tuman nomi	Yaratiladigan ish o‘rinlari yo‘nalishi	Ish o‘rinlari jami	*shu jumladan*														
				1-chorak	*shundan*			2-chorak	*shundan*			3-chorak	*shundan*			4-chorak	*shundan*		
					yanvar	fevral	mart		aprel	may	iyun		iyul	avgust	sentyabr		oktyabr	noyabr	dekabr
1	**So‘x tumani**	**JAMI**	**13 009**	**1 660**	**439**	**549**	**672**	**5 349**	**2 179**	**2 326**	**844**	**2 822**	**779**	**790**	**1 253**	**3 178**	**986**	**1 199**	**993**
		Investitsiya loyihalari	1469	10	*0*	*0*	*10*	115	*23*	*41*	*51*	157	*20*	*9*	*128*	1 187	*104*	*620*	*463*
		Xizmat ko‘rsatish va tadbirkorlik	5800	1 268	*399*	*416*	*453*	1 487	*473*	*489*	*525*	1 613	*525*	*544*	*544*	1 432	*527*	*454*	*451*
		Qishloq ho‘jaligi	4 947	232	*0*	*93*	*139*	3 547	*1 618*	*1 729*	*200*	823	*158*	*160*	*505*	345	*280*	*50*	*15*
		Qurilish	793	150	*40*	*40*	*70*	200	*65*	*67*	*68*	229	*76*	*77*	*76*	214	*75*	*75*	*64*

Xalq deputatlari So‘x tumani Kengashining
2025-yil 26-fevraldagi
VII-5-27-11-159-K/25 -son qaroriga
2-ilova

So‘x tumanida 2025-yilda Investitsiyalar, tashqi savdo va mahalliy sanoatni rivojlantirish yo‘nalishida yaratiladigan yangi ish o‘rinlarining oyma-oy TAQSIMOTI YIG‘MAS

№	Tuman nomi	Yaratiladigan ish o‘rinlari yo‘nalishi	Ish o‘rinlari jami	*shu jumladan*															
				1-chorak	*shundan*			2-chorak	*shundan*			3-chorak	*shundan*			4-chorak	*shundan*		
					yanvar	fevral	mart		aprel	may	iyun		iyul	avgust	sentyabr		oktyabr	noyabr	dekabr
1	**So‘x tumani**	**JAMI**	1469	10	*0*	*0*	*10*	115	*23*	*41*	*51*	157	*20*	*9*	*128*	1 187	*104*	*620*	*463*
		Investitsiya loyihalari	1469	10	*0*	*0*	*10*	115	*23*	*41*	*51*	157	*20*	*9*	*128*	1 187	*104*	*620*	*463*

Xalq deputatlari So‘x tumani Kengashining
2025-yil 26-fevraldagi
VII-5-27-11-159-K/25 -son qaroriga
3-ilova

So‘x tumanida 2025-yilda Markaziy bank tomonidan tadbirkorlik va kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishida aholini doimiy va vaqtinchalik ishlarda band qilish prognoz ko‘rsatkichlarining oyma-oy
TAQSIMOTI YIG‘MASI

№	Tuman nomi	Yaratiladigan ish o‘rinlari yo‘nalishi	Ish o‘rinlari jami	*shu jumladan*														
				1-chorak	*shundan*			2-chorak	*shundan*			3-chorak	*shundan*			4-chorak	*shundan*		
					yanvar	fevral	mart		aprel	may	iyun		iyul	avgust	sentyabr		oktyabr	noyabr	dekabr
1	**So‘x tumani**	**JAMI**	**5800**	**1 268**	**399**	**416**	**453**	**1 487**	**473**	**489**	**525**	**1 613**	**525**	**544**	**544**	**1 432**	**527**	**454**	**451**
		Xizmat ko‘rsatish va tadbirkorlik	5800	1 268	399	416	453	1 487	473	489	525	1 613	525	544	544	1 432	527	454	451

Xalq deputatlari So‘x tumani Kengashining
2025-yil 26-fevraldagi
VII-5-27-11-159-K/25 -son qaroriga
4-ilova

So‘x tumanida 2025-yilda aholini Qishloq, suv va o‘rmon xo‘jaligida doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish prognoz ko‘rsatkichlarining oyma-oy TAQSIMOTI YIG‘MASI

№	Tuman nomi	Yaratiladigan ish o‘rinlari yo‘nalishi	Ish o‘rinlari jami	*shu jumladan*														
				1-chorak	*shundan*			2-chorak	*shundan*			3-chorak	*shundan*			4-chorak	*shundan*		
					yanvar	fevral	mart		aprel	may	iyun		iyul	avgust	sentyabr		oktyabr	noyabr	dekabr
1	**So‘x tumani**	**JAMI**	**4 947**	**232**	***0***	***93***	***139***	**3 547**	***1 618***	***1 729***	***200***	**823**	***158***	***160***	***505***	**345**	***280***	***50***	***15***
		Qishloq ho‘jaligi	4 947	232	*0*	*93*	*139*	3 547	*1 618*	*1 729*	*200*	823	*158*	*160*	*505*	345	*280*	*50*	*15*

Xalq deputatlari So‘x tumani Kengashining
2025-yil 26-fevraldagi
VII-5-27-11-159-K/25 -son qaroriga
5-ilova

So‘x tumanida 2025-yilda Qurilish, transport va kommunal sohalarida aholini doimiy ishlarda band qilish va korxonalarda norasmiy ishlayotgan xodimlarni vaqtinchalik prognoz ko‘rsatkichlarining oyma-oy
TAQSIMOTI YIG‘MASI

№	Tuman nomi	Yaratiladigan ish o‘rinlari yo‘nalishi	Ish o‘rinlari jami	*shu jumladan*														
				1-chorak	*shundan*			2-chorak	*shundan*			3-chorak	*shundan*			4-chorak	*shundan*		
					yanvar	fevral	mart		aprel	may	iyun		iyul	avgust	sentyabr		oktyabr	noyabr	dekabr
1	**So‘x tumani**	**JAMI**	**793**	**150**	***40***	***40***	***70***	**200**	***65***	***67***	***68***	**229**	***76***	***77***	***76***	**214**	***75***	***75***	***64***
		Qurilish	793	150	*40*	*40*	*70*	200	*65*	*67*	*68*	229	*76*	*77*	*76*	214	*75*	*75*	*64*